

**BOJXONA TO‘LOVLARI YIG‘ILUVCHANLIGINI TA‘MINLASHDA
ELEKTRON DASTURLARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY
MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH
IMKONIYATLARI**

Alimuxammedov Shuxrat Rixsibayevich

O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon siyosati va iqtisodiyotidagi mavjud tendensiyalar bojxona ma‘muriyatchiligining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Bojxona organlari faoliyati zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida yanada soddalashdi va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining asosiy ko‘makchisiga aylanib ulgurdi. Shu bilan birga, bojxona xizmatlarini takomillashtirish borasida yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish va manfaatli hamkorlik olib borish muhimligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: bojxona to‘lovlari, integratsiyalashgan tarif, standartlar, zamon talabi, avtomatlashtirilgan dasturlar.

Mustaqil O‘zbekistonning xalqaro aloqalari tobora rivojlanib borar ekan, bu esa eng birinchi galda bojxona faoliyati zamon talablariga javob bera oladigan darajada mukammal yo‘lga qo‘yilishini talab etadi. Ayniqsa, turli xalqaro shartnomalardagi bojxona ishlariga oid bandlarning O‘zbekistonda sifatli va o‘z vaqtida bajarib borilishini ta‘minlash juda ham muhim. Ushbu standartlarni bajarish uchun sohada keng qamrovli raqamlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, bojxona to‘lovlarni undirilishida ham tegishli dasturlarda mantiqiy nazorat, avtomatlashtirish ishlari joriy etilgan bo‘lib, ammo uning xalqaro standartlarga to‘g‘ri kelishi uchun ya‘ni O‘zbekiston bojxona tizimi hech kimdan kam emas deyilishi uchun xalqaro xorijiy tajribalarni o‘rganish ularning kamchiliklarini to‘ldirish muhim vazifadir. Shu barobarida o‘tgan 2022-yilning o‘zida xalqaro hamkorlik yo‘nalishida 30 ga yaqin davlatlariga xizmat safarlari uyushtirilib, bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xalqaro hamkorlik yo‘nalishida quyidagilarga erishildi:

BAA “DP World” kompaniyasi bilan savdo va logistika sohasida hamkorlik chora tadbirlar rejasi imzolandi

Eron bilan “Tovarlar va transportlarning harakati hamda E-TIRga oid elektron axborot almashish to‘g‘risida” Memorandum o‘rnatildi

Turkiya bilan “Laboratoriyalar o‘rtasida hamkorlik qilish to‘g‘risida” Memorandum va “O‘zaro elektron ma‘lumot almashinuvi” bo‘yicha texnik shartlar imzolandi

Turkmaniston bilan “Olib o‘tilgan tovar va transportlar to‘g‘risida ma‘lumot

almashinuvi” bayonnomasi va texnik shartlari imzolandi.

Gruziya bilan “Kadrlar tayyorlashda hamkorlik qilish to‘g‘risida” Memarandum hamda “Tovar va transportlar haqida dastlabki ma‘lumotlar almashish to‘g‘risida” Bayonnoma imzolandi

Belgiyada JBT bosh kotibi bilan uchrashuv o‘tkazilib, kelgusidagi hamkorlik yo‘nalishlari belgilab olindi.

Xorijiy tajribani o‘rganish natijasida bir qancha ustunlik samaradorlikka erishildi. Brussel shahridan o‘tkazilgan konferensiyada mamlakatimiz bojxonasi tarixida birinchi bor spiker sifatida ishtirok etildi. Markaziy bojxona laboratoriyasida Turkiya tajribasi orqali 18 turdagi standartlar asosidagi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarini ekspertiza qilish yo‘lga qo‘yildi.

Qirg‘iziston Respublikasi bilan hamkorlikdagi oldindan axborot almashish yo‘lga qo‘yilishi natijasida 155 ta nohalol tadbirkorlar bo‘yicha davlat byudjetiga 790 mln.so‘m qo‘shimcha bojxona to‘lovlari undirildi. Ozarbayjon tajribasi asosida “Bojxona servisi” davlat muassasasi ya‘ni, musodara tovarlarini saqlash va realizatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi tashkil etildi.

Xorijiy tajribalar asosida elektron dasturlar ham takomillashtirildi: BAA va Koreya tajribalari asosida chegarada yuk avtotransportlari va yo‘lovchilar nazoratini kuchaytirishga qaratilgan axborot tizimlari ishlab chiqildi;

Turkiya va Gruziya tajribalari asosida omborlardagi tovarlar nazoratiga qaratilgan axborot tizimlari ishlab chiqildi

BAA va Ozarbayjon tajribalari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, xodimlar bilan ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan axborot tizimlari ishlab chiqildi

Ozarbayjon Respublikasi elektron dasturlari. “Smart customs” elektron mobil platformasi joriy etilib, ushbu platforma quyidagi imkoniyatlarga ega:

Elektron tijorat-soddalashtirilgan deklaratsiyapochta va kuryerlik jo‘natmalari orqali yuborilgan tovarlarni deklaratsiyalash;

- Yo‘lovchilar uchun qisqa deklaratsiyalash-bojxona chegarasidan o‘tishda deklaratsiyani soddalashgan tarzda to‘ldirish;

- Elektron navbat va tez o‘tish-fuqaro va avtotransport vositalari uchun oldindan navbat olib bojxona nazoratida tezroq o‘tish imkoniyati;

- Kalkulyator-avtotransport vositalarini import qilishda bojxona to‘lovlari hisoblash;

- Murojaatlar.

Bundan tashqari ushbu mobil ilovada Ozarbayjon Respublikasi bojxona xizmati to‘g‘risidagi yangiliklar, ma‘lumotlar joylashtirilib boriladi.

Gruziya Respublikasi bojxona elektron dasturlari. Gruziya bojxona xizmatida bojxona qiymatini pasaytirish, tovarlarni TIF TN kodini xato belgilash, deklaratsiyalarni kabi jarayonlarda aniqlangan kamomadga nisbatan jazo chorasi

sifatida jarima joriy etilgan bo‘lib, uni bojxona xodimi soddalashtirilgan tartibda undirib oladi. Bunda, aniqlangan kamomad undirilayotgan umumiy bojxona to‘lovining 5%idan ko‘p bo‘lmagan taqdirida kamomad deb qaralmaydi.

Tovar va transport vositalariga nisbatan TIF TN kodini aniqlash, kelib chiqish mamlakatini aniqlash va bojxona qiymati orqali bojxona to‘lovlarini hisobini aniqlash bo‘yicha dastlabki qaror olinib, bojxona organlariga dastlabki qaror raqami aks etgan bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etsa rasmiylashtiruv soddalashtirilgan tarzda amalga oshiriladi (avtorasmiylashtiruv yoki to‘liq yashil yo‘lakka yo‘naltiriladi).

BAAning Dubay tajribalari. “Cargoes Customs” elektron axborot tizimi va “Dubai trade portal” platformasi o‘rnatilgan bo‘lib, uning imkoniyatlari TIF subyektlariga ham bojxona organlariga ham qulayliklar keltirib chiqqan.

“Cargoes Customs” elektron axborot tizimi “DP World” kompaniyasining yetakchi IT mutaxassislari (bugungi kunda 400 dan ortiq) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, tadbirkorlik subyektlari uchun alohida, bojxona xodimlari uchun alohida interfeysga ega.

Dastur o‘z ichiga bojxona organlari faoliyatining barcha nazorat qiluvchi faoliyatlarini jamlashtirgan. Xususan, tovarlarning TIF TN kodi va bojxona qiymatini belgilash; tovarlar chiqarib yuborilgandan so‘ng audit nazorati; xavfni boshqarish tizimi; sun‘iy intellektga asoslangan kontrabanda nazorati; teskari aloqa tizimi (feedback).

“Cargoes” axborot tizimi Jahon bojxona tashkilotining “WCO data model 3.7” standartlari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, “mijoz” va “bojxona” platformalari mavjud. Har bir tizim foydalanuvchisiga platformaga kirish maqsadida tegishli autentifikatsiya jarayonlari o‘tkazilgandan so‘ng login va parol taqdim etiladi.

Ushbu login va parol orqali tizim foydalanuvchisiga maqom beriladi (tashuvchi, broker, bojxona inspektori, administrator va boshqalar) va uning tizimda ishlash huquqiy chegarasi belgilab olinadi.

Tizim quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lib,

1. Mijozlarni boshqarish moduli;
2. Deklaratsiyalarni boshqarish moduli;
3. Yuk manifesti moduli;
4. Integratsiyalashgan xavflarni boshqarish moduli;
5. Bojxona qiymatini baholash moduli;
6. Ruxsatnoma hujjatlarini rasmiylashtirish moduli;
7. Auditni o‘tkazish moduli;
8. Darvozalarni boshqarish (tranzit nazorati);
9. Bojxona ombori moduli;
10. Bojxona moduli: Tariflarni boshqarish, KPI ni boshqarish, to‘lovlarni undirish va qaytarish, kafolatlarni boshqarish, tizimlari ma‘murlash, bojxona hisobotlarini o‘z

ichiga oladi.

Mazkur tizim orqali quyidagi operatsiyalarni amalga oshirish mumkin:

- har qanday turdagi yuk xatini (avia yuk xati, CMR, SMGS yuk xati va boshqalar) shakllantirish (real vaqt rejimida);
- tijorat hujjatlarini (invoys) elektron tarzda yaratish;
- bojxona yuk deklaratsiyasini yaratish (real vaqt rejimida va tayyorini yuklash), to‘g‘rilash, tegishli organga jo‘natish va bekor qilish;
- to‘lovlarni barcha turlarini amalga oshirish;
- tegishli klassifikatorlar yordamlaridai foydalanish;
- tovarning TIF TN kodini qidirish (poisk tizimi) yoki unikal savolnoma mexanizmi asosida tovarning TIF TN kodini aniqlash;
- ruxsatnoma va sertifikatlarni olish.

“Cargoes” axborot tizimi mijoz platformasida o‘zini mantiqiy nazorat, texnik xatoliklarni ko‘rsatish, analiz va boshqa mijozga yordam qiluvchi modullar ham mavjud.

“Cargoes” axborot tizimining asosiy qulayliklaridan biri — barcha modullar yagona tizimga jamlangan bo‘lib bir-biriga mantiqiy jihatdan bog‘langan.

Tizimning xavflarni boshqarish modulida deduktiv, induktiv va preduktiv xavflarni boshqarish yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, tizimning o‘zi tomonidan internet maqolalari, yangiliklar, JBTning maxsus platformasidagi qayd etib boriluvchi qonunbuzilishlarni tahlil qilib, ehtimoliy xavflarni aniqlaydi va xodimga yangi profil yaratilishida yordam beradi.

Turkiya bojxona xizmati departamenti. Tovarlar uchun deklaratsiyalar ular yetib kelgandan keyin 20 kun ichida tashlanishi zarur. Rasmiylashtirilishi uchun hujjatlar “Bilge” bojxona axborot tizimi orqali jo‘natish imkoni mavjud.

“Bilge” bojxona axborot tizimi (Fransiya) 1998-yildan joriy etilgan “SOFIX” axborot tizimi bazasida qayta yaratilgan bo‘lib, unda tovarlarni omborlarda saqlash, xavflarni tahlil qilish, bojxona to‘lovlarini hisoblash va deklaratsiyalash kabi modullar mavjud.

Xavf bo‘yicha barcha ogohlantirishlar ushbu tizimida o‘z aksini topadi va xodimlar tomonidan ushbu xavflar bilan tanishilganligi haqida belgi qo‘yiladi. Ushbu dastur yagona tizim sifatida tovarlar bilan bog‘liq barcha operatsiyalar bilan tanishish, shu jumladan tovarlardan namuna va nusxalar olinganligini va yakuniy laboratoriya xulosasini ko‘rish imkoniyati mavjud. Rasmiylashtiruv jarayonida tovarlarning TIF TN kodi, qanday ruxsatnomalar talab etilishi, to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlariga aniqlik kiritish imkonini beruvchi maxsus axborot tizimdan foydalaniladi.

Tizimda mavjud tovar bo‘yicha hisoblangan to‘lovlar avtomatik ravishda hisoblab chiqiladi, agar to‘lovlarda farq bo‘lsa, ushbu katak qizil rangga bo‘yaladi.

Turkiya amaliyotida jarima miqdori yuqoriligi sababli tovarlarning bojxona

qiymati bilan bog‘liq muammolar ko‘p kuzatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O‘zbekiston, 2019 //http://www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. 2016-yil /http://www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi 611-II-son Qonuni// http://www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 9-apreldagi “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi 777-son Qonuni// http://www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni// http://www.lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5414-sonli Farmoni //http://www.lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-sonli Farmoni// http://www.lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5-iyundagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini isloh etish va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6005-sonli Farmoni// http://www.lex.uz.